

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA O'QITUVCHILAR HUQUQLARINING KAFOLATLARI

Ergasheva Nargiza Bahriiddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Bugungi kunda yurtimizda bo'lib o'tgan muhim siyosiy jarayonlardan biri bu yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu maqolada yangilangan Konstitutsiyada belgilangan o'ituvchi va pedagog xodimlarning huquqlari va ularning kafolatlari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** referendum, konstitutsiyaviy islohot, pedagog, huquqiy maqom.*

Ayni kunlarda yurtimizda bo'lib o'tgan muhim siyosiy jarayonlardan biri bu – konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Jannatmakon yurtimiz azal-azaldan ta'lim-tarbiyada o'rnak, fanda esa ilm-ma'rifat o'chog'i vazifasini o'tab kelgan. Qanchadan-qancha buyuk ilm-u toliblar, mashhur kashfiyotchilar ham aynan bizning yurtning farzandlari bo'lgani bilan har qancha faxrlansak arziydi. O'sha mashhur ikki uyg'onish davri, insoniyat rivojida ilm-u – fan tobora yuksalib borayotgan bir paytdan, Beruniy yer kurrasining qanday tuzilganligi haqida o'z qarashlariga ega bo'lgan, insonlar o'ziga hos muloqot shakllarini tushunib, o'z tillarida ijod qilishni boshlayotganida, buyuk alloma Forobiy yetmishga yaqin tilni bilgan va bir yuz ellikdan ortiq asarlar yozgan.

Bu esa bir inson qilishi mumkin bo'lgan eng ulkan, ilm fan uchun qo'shilgan hissalaridan biridir. Bu ma'lumotlar ehtimol ko'p tilga olinishi sababli siyqasi chiqqandek tuyular, ammo ayni damda bu shaxslarni eslab o'tishdan maqsad mutlaqo boshqa. Ular yashagan davrda ilm-fanning shu darajada taraqqiy etishiga sabab nima

bo'lganligi, o'sha davr siyosiy tizimi va ijtimoiy muhiti haqida so'z boradi. Kuchli davlat qanday shaklanadi? Albatta kuchli siyosiy tizim, inson huquq va erkinligi, uning qadr-qimmati yuksaklarga ko'tarilsa, qonun har doim ustun va ustuvor bo'lsa, shubhasiz buyuk davlat hosil bo'ladi.

O'z davrida qat'iyati bilan mashhur bo'lgan kuchli siyosat arbobi Amir Temur hukmronlik qilgan davrda yurt qiyofasi tubdan o'zgarib, ko'plab yutuqlarga erishildi. Uning davrida ayniqsa, ilm-fanga katta e'tibor berildi, ta'limga e'tiborni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bugun ham uchinchi renessans shiddat bilan borayotgan bir paytda, ushbu uyg'onishni tom ma'noda mustahkam poydevori vazifasini o'tovchi O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi qabul qilinishi e'tiborga molik.

Referendum orqali qabul qilingan, Konstitutsiyaviy qonunda ilm-fan uchun yanada keng imkoniyatlar eshigini ochuvchi huquqlarning kiritilishini kuzatish mumkin. Xususan, ta'lim to'g'risidagi moddaga kiritilgan o'zgarishiga ko'ra:

“Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir”.

Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022 yil 20 iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqida “Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy maskanlarni Uchinchi Renessansning eng muhim poydevori hisoblaymiz” - deb ta'kidlagan edilar. Kiritilgan ushbu qo'shimcha, bilimi

mustahkam yoshlar tarbiyasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tizimida olgan bilimlarni bolalar hech qachon unutmaydi, ya'ni inson umri davomida olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning qariyb 70 % ini aynan 5 yoshgacha bo'lgan davrida olishini hisobga olganda bu qo'shimcha o'ta ahamiyatli desak mubolag'a bo'lmaydi. Ikkinchi Renessans bunyodkori Amir Temur davlatida amaldorlarga "mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar. Sayidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug'larni aziz tutsinlar" degan vazifani qo'yganligi "Temur tuzuklari" da aks etgan. Ehtimol, olamshumul yutuqlarga sabab, ustozlarning ulug'lanishi, ularning mashaqqatli mehnatining munosib ravishda qadrlanishidir. Negaki, ustozlar yo'lchi yulduzdek, to'g'ri manzilni topishda o'rganuvchilarga ko'mak beradi.

Uchinchi Renessans, Yangi Konstitutsiyada o'qituvchi va murabbiylarning huquqiy maqomining mustahkamlanishi quvonarli hol. Kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, 52-moddada "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" deb belgilab qo'yildi. Moddani kengroq sharhlaydigan bo'lsak, bu yerda o'qituvchining mehnati nimalarga sarflanishi belgilangan, ya'ni ular jamiyatni rivojlantirishda asos, kelajak avlodni yetuk qilib tarbiyalashda eng birinchi omil hisoblanadi.

Yaqin yillargacha pedagog xodimlarning faoliyati birorta normativ-huquqiy hujjatda belgilanmaganligi barchamizga sir emas. Yangilangan Konstitutsiya, ya'ni eng oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatda ularning maqomi belgilanishi ham, ularga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib borayotganligining namunasidir. Bundan tashqari 2023-yilning 27-martida "Pedagog xodimlarning xizmat vazifasini

bajarishga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Endi pedagog xodimlarni mehnatga biror-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash ta'lim tashkiloti pedagog xodimiga nisbatan ma'muriy jazo, undan keyin esa jinoiy jazo qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Bu qonun yaqin yillargacha pedagoglarning vazifasidan tashqari turli ishlarga jalb etilishi holatlari ro'y berayotganligi va endi mana shunday holatlarning oldini olish uchun qabul qilindi.

Taraqqiyot strategiyasining 4-yo'nalishida belgilangan maqsadlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'quv o'rinlarining sonini 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish, Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 % ga yetkazish va ta'lim sifatini yuqori darajaga oshirish vazifa sifatida qo'yilgan. Bundan tashqari yangi Konstitutsiyada ta'limga yo'naltirilgan moddasida, "Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi" deyilgan Bu esa shuni anglatadiki, ta'lim muassasalarining soni keskin ortadi, ya'ni faqat davlat ta'lim muassasalari emas, balki xususiy ta'lim muassasalari ham ko'payadi. Natijada o'qituvchilarga bo'lgan talab oshadi, yuqoridagi maqsadlarga erishish birinchi navbatda pedagog xodimlarning huquqlarini, ayniqsa davlat himoyasida ekanligini, faoliyatiga aralishishga yo'l qo'yilmasligini Konstitutsiya darajasida kafolatlashni talab qiladi.

Agarda, maktabgacha ta'limdan to oliy ta'limni tugatguncha ushbu qat'iy tizimga amal qilinsa, albatta yangitdan-yangi dunyoni lol qoldirguvchi zotlar yetishib chiqishi tabiiy. Xususiy bog'cha va maktablarning qurilishi esa davlat ta'lim muassasalari bilan o'ziga xos raqobat muhitini yaratadi. Raqobat bor joyda, o'sish bo'ladi. Pedagog xodimlar o'z mehnatiga yarasha javob olishlari, ularning maqomining yanada mustahkamlanishi kasbga bo'lgan mas'uliyatni oshiradi.

Shunchaki, zerikarli va vaqtni o‘g‘irlovchi dars soatlari endi vijdonan va mehr bilan o‘tiladi.

Muxtasar qilib aytganda, Konstitutsiyaga kiritilgan ta’lim olishga oid huquqlarning takomillashtirilishi biz va bizga o‘xshagan talaba yoshlarga o‘z ustimizda ishlashimiz va olgan bilimlarimizni Vatanimiz ravnaqi uchun sarflashimizga keng huquqiy imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR

1. Temur tuzuklari. – T.: “O‘zbekiston”, 2013. 184 b.
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
<http://lex.uz/docs/-6445145>
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2023-y., 03/23/826/0172-son
<http://lex.uz/uz/docs/-6416492>
4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/23/21/0085-son.
<http://lex.uz/uz/docs/-5841063>